

BOLALARDA OTA-ONADAN SEPARATSIYALANGANLIK DARAJASINI PSIXOLOGIK TADQIQ ETISH.

Ziyadilloeva Malikabonu Abdulloyevna.¹

¹ *Buxoro davlat universiteti Psixologiya ta'lim
yo'nalishi 1- kurs talabasi*

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 11.03.2025

Revised: 12.03.2025

Accepted: 13.03.2025

KALIT SO'ZLAR:

*separatsiya,
emotsional holat, menlik
tushunchasi, genital
bosqich, ijtimoiy
munosabatlar tizimi.*

*Ushbu maqolada separatsiya jarayoni va uning
inson hayotidagi o'rni haqida tushuncha, ushbu
jarayonning o'ziga xosligi va separatsiya
bosqichlari muvaffaqiyatli kechishi uchun tavsiyalar
berilib, ushbu holat umumiy ravishda yoritilib
beriladi.*

KIRISH. Inson zoti dunyoga kelar ekan, hayotining eng asosiy qismini oila va yaqinlar davrasida o'tkazadi. Aynan bir chaqaloqning shaxs bo'lib yetishishida ota va onaning farzandga bo'lgan e'tibori, unga beradigan ta'lim-tarbiyasi juda muhim o'rinni egallaydi. Chunki bola dunyo haqidagi dastlabki axborotni ota, ayniqsa, onasidan ko'proq qabul qilib oladi. Keyinchalik yillar o'tgan sari, unda nutq shakllanishi orqali jamiyat bilan normal muloqotga kirishadi, ya'ni endi uning yagona axborot manbayi ota-ona emas, balki butun bir jamiyat uning axborot manbayiga aylanadi, ayni shu damda parallel ravishda bolada menlik, mustaqillik tushunchalari paydo bo'ladi. Ammo, ko'pchilik hollarda boladagi ushbu tushunchalar ota-onalar tomonidan inobatga olinmaydi va kelajakda undan mustaqil bo'lish, jamiyatda o'z o'rnini topish kabi masalalarga e'tibor qaratishi kerak ekanligi haqida talab qilinadi. Albatta bu vaziyat bolada separatsiya jarayoni normal kechmaganligidan dalolat beradi.

Ushbu jarayon to'g'risida olimlarning tadqiqotlari bilan tanishib chiqsak: taniqli ingliz psixiatri Jon Boullbi, bola hayotida oilaning rolini, onadan ajralishning bolani rivojlanishiga ta'sirini, ona mehrining yetishmovchiligi va psixopatologik og'ishlar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rgangan. Meri Eynsvort esa, Angliyada bo'lganida Jon Boullbi boshchiligidagi Tavistok klinikasining tadqiqot guruhiga qo'shildi va ona bilan ajralishning bolalar rivojlanishiga ta'sirini o'rgandi.

Separatsiya jarayonini to'liqroq tushunish uchun quyidagi savollarni ko'rib chiqamiz. Separatsiya qanday jarayon va u nechta bosqichdan tashkil topadi?

Bola asta-sekinlik bilan ota-onasidan mustaqil bo'lishi, ayni damda tobe munosabatlardan teng maqomli munosabatlar tizimiga o'tish jarayoni separatsiya deb ataladi.

Separatsiya jarayonini bosqichlarga bo'lib o'rgananib chiqamiz:

1) bola hayotining dastlabki yillari (3 yosh) – bolada asta-sekinlik bilan mustaqil fikrlar shakllanadi, menlik tushunchasi paydo bo'ladi va endi u yura oladi, boshqalar bilan til orqali muloqot qilish jarayonida o'z ehtiyojlarini, istaklarini ayta oladi. Endi bolaning yagona axborot manbayi ota-ona emas, balki, boshqa odamlar bilan ham bemalol muloqot qilish orqali ulardan ham ma'lumotlar oladi.

2) maktabgacha bo'lgan davr (3-7 yosh) – ushbu davrda mustaqil bo'lishga bo'lgan dastlabki xohishlar paydo bo'ladi, ya'ni misollar bilan tushuntiradigan bo'lsak, bog'chada berilgan topshiriqlarni hech kimning ko'magisiz o'zi mustaqil bajarishni istaydi. Bu jarayonda ota-onalar farzandlarini qo'llab quvvatlashi va shu tarzidagi istaklarini inobatga olishlari darkor.

3) maktab davri (7-12 yosh) – bu paytda bolada ijtimoiy moslashuv jarayonlari paydo bo'ladi, bu davrda unda o'qishga, ma'lum bir fan turiga nisbatan qiziqishlar shakllanadi va o'qish jarayonidagi mustaqillik tushunchalari ustunlik qiladi.

4) o'smirlik davri (12-18 yosh) – mustaqillik sari eng muhim qadamlar, bilamizki ayni shu paytda yigit va o'smir qizlarda balog'atga yetish davri boshlanadi, turli xildagi gormonal va fiziologik o'zgarishlar ushbu jarayonga o'z ta'sirini bevosita namoyon qiladi. Ko'p hollarda qalqonsimon bezning funksiyasi kuchayib, turli xildagi o'zgarishlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Psixoanaliz bo'yicha aynan balog'at davrini tahlil qilsak bu jarayon genital bosqichga to'g'ri keladi, yuqoridagi gormonal o'zgarishlar esa, qarama-qarshi jins vakiliga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi, bu holatda bolaning ota-onasi bilan munosabati normal, adekvat holda bo'lsa bu jarayondan tezda o'tib oladi. Masalaning ikkinchi tomoni shundaki ota-ona uning fikrlarini, qarorlarini eshitmayotgan bo'lsa bu

paytda unda ichki emotsional yopiqlik paydo bo'ladi va ota-ona bilan farzand o'rtasida turli tushunmovchiliklar kelib chiqadi.

5) mustaqil hayotga tayyorgarlik bosqichi (18-25 yosh) – bu bosqichda bola to'laqonli mustaqillikka erishadi, to'g'rirog'i separatsiya jarayoni o'z yakuniga yetadi, endi u aniq kasbni tanlab kelajagi uchun muhim rejalarni amalga oshiradi. O'rtada shunday savol keladi to'liq separatsiyalangan inson bo'lish uchun qanday sifatlar yoki omillar muhim hisoblanadi?

Avvalo, moddiy jihatdan hech kimga qaram bo'lmaslik, tushuntirib aytadigan bo'lsak, o'z o'zini ta'minlay bilishi, o'zining shaxsiy chegaralariga ega bo'lishi, o'zi uchun muhim sanalgan qadriyatlarning yuzaga kelishi va eng muhim omillardan biri bu ota-onasiga nisbatan aybdorlik hissining bo'lmasligi muhim sifatlardan biridir ya'ni u o'z qarorlarini ijro etish jarayonida ota-onaga nisbatan hissiy qaramlikni his qilmasligi kerak. Aynan shu paytda biz o'zimizdagi hissiy qaramlik va aybdorlik hissini yo'q qila olmasak bu separatsiya jarayoning yakuniga yetishida katta to'siq sifatida xizmat qiladi. Yana bir muhim omil bolalikdagi travmalardan voz kechish, osonroq tilda aytsak, ota-onasi uni yoshligida ko'proq eshitmagan yoki e'tibor qaratmagan bo'lishi mumkin, lekin bu jarayonlarni to'g'ri qabul qilib, ularni kechirishi, bu kabi holatlarni unutishi kerak. Axir hamada ham xato bo'ladi, ota-onalarimiz ham dunyoga bir marta keladi degan fikrlar orqali bu kabi holatni normal qabul qilishi kerak.

Lekin bu jarayonda ota-onaning ham ko'magi juda zarur, bolaning ayni damdagi emotsional holatini tushunish, unga do'stona maslahatlar berish, uning qabul qilayotgan qarorlariga ishonch ko'zi bilan qarash, xato fikrlar bildirganda ham unga bolalarcha emas, balki, kattalar singari munosabat bo'lib, to'g'ri yo'l ko'rsatish ota-ona va farzand munosabatlarni ijobiy tomonga siljishiga yordam beradi. Taniqli olim, Erik Bern:, ona bilan yaqinlik davri tugagandan so'ng, inson taqdiri va omon qolishi bilan bog'liq masalalar orasida arosatda yashaydi",-deb aytadi. Shuning uchun ham bu jarayonda ota va ona tomonidan farzandida bo'layotgan o'zgarishlarni to'g'ri ma'noda tushunish talab etiladi.

Aslida separatsiya jarayoni bizga nima uchun kerak? Bolani jamiyatda o'z o'rnini topishida, mustaqil fikrlash, javobgarlik hissining paydo bo'lishida, o'ziga nisbatan ishonchini ortishida, emotsiyalarini ma'lum ma'noda boshqarishda ahamiyatlidir. Aynan shu jarayonlardan so'ng inson o'zining haqiqiy ichki erkinligiga erishadi. Ya'ni, endi unga qiziq emas insonlar u haqida, uning qarorlari haqida qanday o'ylashi yoki qanday fikr bildirishi va shu daqiqalardan boshlab endi u mustaqil shaxsga aylanadi. Lekin, to'liq mustaqillik deganda ota-onadan batamom yiroqlashish, ular

bilan begona insonlar kabi munosabatda bo'lish emas, balki, mustaqil shaxs, katta insonlar va asosiysi o'zimizning o'zbek xonadoni farzandi ekanligimizni unutmagan holda ular bilan adekvat munosabatlar tizimini joriy qilishimiz zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, sog'lom separatsiya jarayonini boshdan kechirgan har bir bola ota-onasiga nisbatan hurmat, mehribonchilik, e'tibor kabi xislatlarni o'zida mujassam qilib, o'z hayotini o'zi boshqaradi va butun umri davomida yuz beradigan jarayonlarga nisbatan mas'uliyat bilan yonshadi. Ushbu holatning muvaffaqiyatli kechishi insonni ham shaxsiy, ham ijtimoiy jihatdan yetuk bo'lishiga olib keladi. Sog'lom separatsiyaning eng muhim jihati shundaki, u insonda psixologik barqarorlikni va ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirib, inson o'zini to'liq subyekt sifatida anglashiga yordam beradi. Kelajakda ham o'z farzandlarini tarbiyalash jarayonida, ulardagi ushbu holatni to'g'ri qabul qilib, jarayonni normal kechishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. To'g'rirog'i, normal separatsiya jarayoniga nafaqat hozirgi avlodlarimizning, balki, ularning kelajakdagi zurriyotlarining sog'lom fikrlashi, jamiyatga mustaqil shaxs sifatida kirib kelishida, hayotning har bir jabhasida o'z o'rnini topishda yordam beruvchi eng muhim jarayon sifatida qarashimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Марина Мелия. “Главный секрет первого года жизни”. 2015.
2. Kendra Cherry. “Mary Ainsworth Biography”.
3. Erik Bern. “Odamlar o'ynaydigan o'yinlar”. 2023.
4. Елена Чепцова. Сепарация спокойно и бережно.
5. Н. Е. Харламенко. Е. В. Кумыкова А. К. Рубченко. Психологическая сепарация.